



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI**  
**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**B U Y R U Q**

2023-yil “ 02 ” dekabr

№ 422-ij

Samarqand sh.

**Samarqand davlat universiteti talabalari, magistrleri, tadqiqotchilari, tayanch doktorantlari va doktorantlari o‘rtasida “Yangi Konstitutsiya - taraqqiyot qomusi” mavzusida ilmiy maqolalar tanlovini tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi F-72-son farmoyishi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 24-noyabrdagi 02/17-3388-son modermnomasiga muvofiq Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti talabalari, magistrantlari, tadqiqotchilari, tayanch doktorantlari va doktorantlari o‘rtasida “Yangi Konstitutsiya - taraqqiyot qomusi” mavzusida ilmiy maqolalar tanlovini tashkil etish” maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi F-72-son farmoyishi, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 24-noyabrdagi 02/17-3388-son modermnomasi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida “Yangi Konstitutsiya - taraqqiyot qomusi” mavzusida ilmiy maqolalar tanlovi 2023-yil 4-dekabr kuni o‘tkazilsin.

3. Tanlovga kelib tushgan maqolalarni qabul qilish va baholash bo‘yicha quyidagi tarkibda ishchi guruh tuzilsin:

3.1. H.Xushvaqtoy - ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais;

3.2. D.Xursanov - ilmiy tadqiqotlar boshqarmasi boshlig‘i, rais o‘rinbosari;

3.3. R.Mirzayev - yuridik fakulteti dekani, a‘zo;

3.4. D.Qurbonov - maxsus huquqiy fanlar kafedrasini mudiri, a‘zo;

3.5. Sh.Maxmatmurodov - universitet boshlang‘ich Kasaba uyushma qo‘mitasi raisi, a‘zo;

3.6. Sh.Xoliqulov - ilmiy tadqiqotlar boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, a‘zo;

3.7. B.Odinayev - ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo.

4. O'tkazilgan tanlov bo'yicha ma'lumotni belgilangan tartibda taqdim etish, ilmiy tadqiqotlar boshqarmasi boshlig'i D.Xursanov zimmasiga yuklatilsin.

5. Tanlov g'oliblarini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor I.Raxmanov zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor H.Xushvaqtoev zimmasiga yuklatilsin.

**Asos:** ilmiy tadqiqotlar boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari **Sh.Xoliqulov** tayyorlagan buyruq loyihasi, moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor **I.Raxmanov**, katta yuriskonsult **A.Usmanov** roziligi, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor **H.Xushvaqtoevning** munosabat belgisi.

Rektor



R.Xalmuradov